

SIYOSIY TIZIMLARNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Asrorov Zafar Husniddin o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlat va jamiyatning eng muhim institutsional tashkiloti bo'lgan siyosiy tizim uning tarkibiy elementlari, fundamental asoslari, hamda siyosiy tizimlar haqida bugungi kungacha shakillangan nazariyalar, paradigmatlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *siyosat, tizim, siyosiy tizim, siyosiy hokimiyat, komponent, element, institut, norma, struktura, nazariya, paradigma.*

Jamiyatning siyosiy tizimi - jamiyatning siyosiy tashkiloti, siyosiy tuzilmasi – bu hokimiyatni (davlatni) amalga oshirish va jamiyatni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan yagona me'yoriy qiymatli asosda tashkil etilgan siyosiy sub'ektlarning o'zaro ta'sir munosabatlari yig'indisidir.

Siyosiy tizim mohiyatini anglash uchun avvalambor siyosat va tizim tushunchalarini bilib olish zarur.

✓ **Siyosat** – davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining faoliyati, shuningdek, davlat faoliyati bilan bog'liq jamiyat hayotining barcha masalalari va hodisalarini o'z ichiga olgan tushuncha.

✓ **Tizim** - bir-birini taqazo qiladigan, o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lgan elementlarning mantiqiy ketma-ketlikda joylashuvi va mana shu mantiqiy ketma-ketlik yakunlanganidan keyin yangi bosqichga ko'tarilishi.

✓ **Siyosiy tizim**- xalq irodasiga muvofiq, siyosiy hokimiyatni amalga oshirishga xizmat qiluvchi siyosiy tashkilotlar (davlat, siyosiy institutlar, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, nodavlat uyushmalar) siyosiy normalar, prinsplar, institutlar, jarayonlarning o'zaro aloqadorligi va mushtarak yig'indisidir.

Tizim tushunchasi XX asrning 20-yillarida ilmiy muomalaga kirib kelgan. Dastlab “tizim” tushunchasini fanga nemis biolog olimi L. Fon Bertalanfi kiritgan. U tizimlarning umumiy nazariyasini ishlab chiqqan. Bu nazariyaga tayangan holda AQSH olimi Tolkott Parsons jamiyatda nihoyatda murakkab boshqaruvdan iborat nisbatan avtonom (iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy) tizimlar mavjud ekanligiga e'tibor qaratdi. Bu tizimlarning har biri o'zining alohida funksiyasiga ega bo'lib, ulardan biri siyosiy tizim. Uning fikricha, mazkur tizim umumiy maqsadlarni ishlab chiqish, integratsiyalash va amalga oshirishni ta'minlab beradi. Parsonsning siyosiy tizimga doir g'oyalarini yana bir AQSH siyosatshunosi Devid Iston har tomonlama chuqurlashtirdi va rivojlantirdi. U o'zining siyosiy tizim modeliga asos soldi. Mazkur modelda Iston siyosiy tizimning ikkita asosiy funksiyasini ajratib ko'rsatdi:

- Siyosiy tizim jamiyatdagi qadryatlarni taqsimlay olish holatida bo'lishi lozim;
- Siyosiy tizim o'z fuqarolarini bu taqsimlanishni muqarrar ravishda qabul qilishi uchun ishonтира olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Shu bilan birgalikda siyosiy tizimlar davlat va jamiyat manfaatlarini artikulyatsiyalash ya'ni (Artikulyasiya - lotinch. articulation alohida-alohidaga bo'linish) nodavlat va jamoat tashkilotlari individlar va ijtimoiy guruhlarining tarqoq qarashlari, ijtimoiy ruhiy kechinmalari va umidlarini aniq va ma'lum siyosiy maqsadlar va talablarga aylantirish jarayonini anglatadi, hamda agrigatsiyalash ya'ni (Agregatsiya - lotincha aggregatus qo'shilgan, to'plangan) nodavlat va jamoat tashkilotlari ayrim manfaatlarini agregatsiya qilish, ya'ni turli munozaralar va muhokamalar vositasida asosiy va muhim manfaatlar uyg'unlashtiriladi va ular o'rtasida muayyan munosabatlar tizimini shakllantiradi, siyosiy tizim mazkur jarayoni ham taminlashi zarur.

Siyosiy tizimning konseptual tuzilishi (Strukturasi)

Siyosiy tizimning tuzilishi deganda uning qanday elementlardan iboratligi, ularning bir-biri bilan qanday bog'langanligi tushuniladi. Siyosiy tizimning quyidagi beshta tarkibiy qismlari ajralib turadi:

1.Tashkiliy (institutSIONAL) komponent - jamiyatning siyosiy tashkiloti, shu jumladan davlat, siyosiy institutlar, tuzilmalar, tshkilotlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, jamoat tashkilotlari va birlashmalari, mehnat jamoalari, bosim guruhlari, kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari;

2.Madaniy komponent- siyosiy hokimiyat va siyosiy tizimning psixologik va mafkuraviy tomonlarini tavsiflovchi (siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy g'oyalar / mafkuralar);

3.Me'yoriy (normativ) komponent- jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy hokimiyatni amalga oshirish jarayonini tartibga soluvchi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy normalar, an'ana va urf-odatlar, axloqiy meyorlar;

4.Kommunikativ komponent - siyosiy hokimiyatga oid tizim elementlari, shuningdek, siyosiy tizim va jamiyat o'rtasida axborot aloqalari va siyosiy munosabatlar, siyosiy jarayonlar, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar;

5.Funksional komponent - davlatning siyosiy tizim konstruksiyasida deyure mavjud bo'lgan yuqoridagi to'rtta (*institutSIONAL, madaniy, me'yoriy, kommunikativ*)komponentlarning real siyosiy jarayonlardagi defakto o'rni va ro'li hisoblanadi. Funksional komponent amaldagi siyosiy tizimning qanday siyosiy rejimga mansub ekanligini belgilaydi.

Siyosiy tizimlarning asosiy quyidagi shakllari mavjud:

•**Demokratiya** - Demokratiya (qadimgi yunoncha "demokratiya" demos "xalq" + kratos "hokimiyat" so'zlaridan olingan) - bu siyosiy jarayonlarning natijasiga yoki uning mohiyatiga ishtirokchilarning teng ta'siri bilan jamoaviy qarorlar qabul qilish

usuliga asoslangan siyosiy tizim darajasi. Garchi bu usul har qanday ijtimoiy institutlarga ta'alluqli bo'lsada, bugungi kunda uning eng muhim qo'llanilishi davlat boshqaruvida, chunki u katta kuchga ega. Bunday holda, demokratiya ta'rifi odatda quyidagilardan biriga ixchamlashtiriladi:

-Rahbarlarni ular boshqaradigan odamlar (fuqorolar) tomonidan tayinlanishi (saylanishi)bu adolatli va raqobatbardosh saylovlar orqali amalga oshiriladi.

-Xalq hokimiyatning yagona qonuniy manbaidir.

- Jamiyat umumiy manfaatlarni va umumiy ehtiyojlarni qondirish uchun o'zini o'zi boshqarishni amalga oshiradi.

•**Liberal demokratiya** - Liberal demokratiya har bir inson va fuqaroga qonuniy huquq va erkinliklar, xususiy mulk, shaxsiy daxlsizlik, so'z erkinligi, ommaviy axborot vositalari erkinligi, yig'ilishlar (mitinglar) erkinligi, uyushmalar erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi va boshqalarni ta'minlashga qaratilgan.

•**Gibrit rejim** - demokratik rejimga to'liq ega bo'lmagan o'tish davri natijasida avtoritar rejim asosida vujudga keladigan aralash turdagi murakkab siyosiy rejim. Gibrit rejimlar avtokratik xususiyatlarni demokratik xususiyatlar bilan birlashtiradi, ya'ni ularda bir vaqtning o'zida siyosiy repressiyalar va legal siyosiy kurash olib borilishi mumkin. "Gibrid rejim" atamasi avtokratiya yoki demokratiya dixatomiyasiga qarshi bo'lgan siyosiy rejimlarning polimorf ko'rinishi tufayli mavjud. Gibrid rejimlar resurslarga boy mamlakatlarga xosdir (petrokратиya). Bunday rejimlar barqaror va mustahkam.

Gibrid rejimlarni tahlil qiluvchi siyosatshunos tadqiqotchilar, asosan, demokratik institutlarning dekorativ xususiyatiga e'tibor berishadi (saylovlar hokimiyat almashinuviga olib kelmaydi, turli ommaviy axborot vositalari bir xil narsani eshittiradi, parlamentdagi "muxolifat" hukmron partiya bilan bir xil tarzda ovoz beradi va h.k. .), shundan xulosa qilinadiki, gibrid rejimlar avtoritarizmga asoslanadi, ammo gibrid rejimlar ham nisbatan pastroq (aniq) zo'ravonlik darajasiga ega bo'lgan holda, diktaturaga taqlid qiladi.

•**Avtoritarizm** - (lotincha auctoritas "kuch", "ta'sir") — bir shaxsning (prezident, monarx, bosh vazir) yoki bir guruh shaxslarning masalan, doimiy markazlashgan (avtokratik) hokimiyatiga asoslangan nodemokratik siyosiy rejim, siyosiy partiya) avtokratik davlatlarda ma'lum darajada iqtisodiy, fuqarolik va madaniy erkinliklarni saqlab turiladi ammo siyosiy erkinlik va huquqlar poymol qilinadi.

•**Totalitarizm** - Boshqaruvidagi totalitarizm jamiyat va hukumat o'rtasidagi munosabatlar shakli bo'lib, unda siyosiy hokimiyat o'z oldiga inson hayotining barcha jabhalarini to'liq nazorat qilish vazifasini qo'yib, odamlar va jamiyat ustidan to'liq (total) nazorat qilishga intiladi. Muxolifatning har qanday shakldagi ko'rinishlari davlat tomonidan bostiriladi yoki yo'q qilinadi.

•**Teokratiya** - bu (qadimgi yunoncha teos "Xudo" + kratos "hokimiyat" dan) bir shaxsdagi dunyoviy va ilohiy kuchdir.

Davlatda hokimiyati diniy muassasa va ruhoniylar qo'lida bo'lgan boshqaruv shakli (huquqiy ta'rif);

Diniy arboblarning davlat siyosatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan siyosiy tizim (siyosatshunoslik ta'rifi);

Muhim davlat ishlari ilohiy ko'rsatmalar, vahiyalar yoki dogmatik qonunlar bilan hal qilinadigan boshqaruv tizimi (teologik ta'rif).

•**Sezaropapizm** - shuningdek, Sezaropapizm (lotincha Sezar - "Tsezar" va lotincha papa - "ota" dan) - 19-asr lotin, romano-german, g'arbiy yevropa, rim-katolik tarixshunosligi tomonidan imperator hokimiyati va cherkov hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarni belgilash uchun kiritilgan atama. Xristian imperiyasida, unda davlatning boshlig'i (imperator) hisoblanib shu bilan birgalikda cherkovning ya'ni "din"ning ham boshlig'i hisoblangan.

•**Sezarizm** - avtoritar hokimiyat soxta demokratik tamoyillar asosida tashkil etilgan siyosiy rejim (siyosiy tizim).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Qirg'izboyev "Siyosatshunoslikga kirish" (2013y)
2. Devid Iston "Siyosiy tizim" (1953y)
3. Vladimir Tumanov "Jamiyatning siyosiy tashkiloti" (1975y)
4. Gabriel Almond "Siyosiy madaniyat" (1963y)
5. O'zbekiston Milliy Universiteti "Siyosatshunoslikga kirish" (2024y)